

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 15 September 2025**Accepted:** 1 October 2025**Published:** 10 October 2025*Article / Original Paper***FOUNDATIONS OF ANTIQUITY AND MODERNITY IN UZBEK NATIONAL LINGUOCULTURE****Jurayev Nabi Narziyevich**

PhD in Philological Sciences,

Termiz State University

E-mail: nabijurayev1958@rambler.ru

Abstract. This article explores the interrelation of antiquity and modernity in the development of Uzbek national linguoculture. Ancient elements are reflected in folklore, mythological views, early written sources, historical layers of language, and traditional cultural practices. Modern influences are visible in the context of globalization, technological advancement, education, and new forms of communication. The study emphasizes the inseparable link between language and culture, the role of linguoculture in preserving national identity, and the need to safeguard cultural heritage while adapting to contemporary challenges. The findings contribute to identifying the developmental stages of Uzbek linguoculture, provide a theoretical basis for further scholarly research, and open practical opportunities for its application in education, intercultural communication, and cultural policy.

Keywords: linguoculture, antiquity, modernity, national language, Uzbek culture, values, globalization.

O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI**Jo'rayev Nabi Narziyevich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek milliy lingvomadaniyatining shakllanish jarayonida qadimiylik va zamonaviylikning o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Qadimiylik unsurlari xalq og'zaki ijodi, mifologik qarashlar, qadimgi yozma manbalar, tarixiy til qatlamlari va madaniy an'analarda namoyon bo'lsa, zamonaviylik unsurlari globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, ta'lim va kommunikatsiya jarayonlarida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, maqolada til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, milliy o'ziga xoslikni ifodalashdagi lingvomadaniyatning o'рни hamda zamonaviy davrda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ulardan samarali foydalanish masalalari keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek lingvomadaniyatining rivojlanish bosqichlarini aniqlash, uni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish va amaliy sohalarga tatbiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, qadimiylik, zamonaviylik, milliy til, o'zbek madaniyati, qadriyat, globalizatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N44>

Kirish. O'tgan XX asrning so'nggi o'n yilliklarida lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi, yangi sohasi sifatida lingvistika maydonida paydo bo'ldi. Lingvomadaniyatning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ma'lumotlariga tayangan holda balki nutqni ham o'rganish zarur",- degan fikrga keladi. Ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlarning o'ta dolzarbligi shundaki, insoniyat jamiyatida til orqali madaniyat va mentalitet haqidagi bilim hamda tushunchalarni

chiqarishga hissa qo'shmoqda, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishni targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Tilshunos olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz izlanishlarni yangi bosqichga chiqarish uchun intilganlari sayin yangi-yangi manbalar, lingvomadaniy sohadagi tarixiy va qadimiy ma'lumotlar dunyo yuzini ko'rmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda madaniyat tushunchasini deyarli barcha tilshunoslar, tadqiqotchilar sharhlashga harakat qilmoqdalar.

Madaniyat insonning, butun jamiyat a'zolari guruhining hayoti va faoliyatini, qarashlarini tavsiflaydi, ko'rsatadi hamda namoyon etadi. Insonning xulq-atvori, ongi va serunum faoliyatining xususiyatlari orqali ochib beradi. Shuningdek, narsalar, badiiy san'at asarlari, lingvistik belgilar, birliklarda ifodalanadi. Lingvomadaniyat bugungi kunda madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlarini bir-biriga bog'laydigan, bu fanlar o'rtasida bir ko'prik vazifasini o'taydigan fan sifatida maydonga chiqdi. Bu fan lingvomadaniy birliklar hamda tushunchalarda har bir xalq milliy mentaliteti va madaniyatining aks etishini o'rganadigan, tahlil qiladigan fandır. Lingvomadaniy so'zlarning qadimiyligini, tarixiyligini ko'rsatib, shuning bilan birga uning zamonaviyligini taqqoslash, ochib berish, tahlil qilish orqali ham juda ko'plab ahamiyatli ma'lumotlarni po'yobga chiqarish mumkin. Milliy lingvomadaniyat fanining o'rganish obyektida uzoq tarix bilan bog'liq, aloqador ma'lumotlar juda ko'plab uchraydi. Diaxronik lingvistika bilish vositasi sifatida til va lingvistik usullardan xalqning uzoq o'tmishi, etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatining rivojlanish qadimiyligi haqida ma'lumotlar to'plashga xizmat qiladi. Diaxronik lingvomadaniyat ham, zamonaviy lingvomadaniyat ham xalq madaniyati, madaniy va milliy urf-odatlarining tilda badiiy aks etishini o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin” [1], – degan edi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Bu teran fikrlarning zahirida bir dunyo ma'nolar mujassam. Unda butun bir o'tmish, butun bir tarix, el, yurt va xalq bor, uning kelib chiqishi, urf-odatlari, tili va madaniyati bor.

“O'zbeklar Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan bo'lib, o'zining uzoq asrlar guvoh yozuv madaniyati, boy yozma yodgorliklari, yozma adabiy til va matn tuzish an'analari, etnografiyasi, milliy udumlariga ega. Xalqning oti – o'zbek, uning tilini esa o'zbek tili deymiz. O'zbek tili turkiy tillarga mansub. Turkiy tillar deganda o'zbek tili qolipidagi, har qalay, o'zbeklar tinglaganda uncha-muncha tushunadigan tillar ko'zda tutiladi” [10]. Bu masalada bundan ming yillar oldin Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu-lug'ati-t-turk” asari muqaddimalarida yozgan fikrlari yana ham aniqroq ma'lumot beradi: *“Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim...Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanilib kelingan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim”*. Yuqoridagi fikrlarni yana ham aniqroq ma'lumotlar bilan boyitadigan bo'lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” nomli asarida ham o'zining tug'ilib o'sgan yurti Andijon haqida yozib, *“...eli turkdir, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam bila rosttur...Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash'u namo topiptur, bu til biladur”*[2], – degan edi. Shunga asosan, o'zbek milliy tilshunosligi hamda

lingvomadaniyatining namoyon bo'lishi tarixan uzoqlarga, uzoq asrlarga borib taqaladi, shuningdek, o'zida tarixiy milliy madaniyat va milliy lingvomadaniyatning haqiqatini aks ettiradi deya olamiz. Garchi lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi sohasi, yangi fani bo'lsa-da, u O'rta asrlar, balki undan ham oldingi davrlar tilshunosligi va lingvomadaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarga murojaat qilish orqali yangi-yangi ma'lumotlarni ro'yobga chiqaradi. "Bugun hech bir mubolag'asiz aytish mumkin va buni men qayd etmoqchiman. O'rta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali to'liq o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda" [3], — degan mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov. Tilshunos olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz va kashfiyotchilarimiz izlanishlarni yangi bosqichga chiqarish uchun intilayotganlari sari yangi-yangi manbalar, milliy lingvomadaniy sohadagi o'tmish, tarix ma'lumotlari kashf qilinaveradi. Ta'kidlash kerakki, tarixiylik va zamonaviylik, ulug'vorlik va navqironlikni asrlar osha o'zida namoyon etib, ilmiy jihatdan hamisha yuksalib kelayotgan o'zbek milliy tilimiz hamda o'zbek milliy madaniyatimiz mazmuni, madaniy va lingvomadaniy tushunchalarning ildizi asosan O'rta asrlarga, aytishimiz mumkinki, undan ham oldingi davrlarga borib taqaladi. Bu boradagi fikr va g'oyalarimizni izchil tahlil qilishimizga o'zbek adabiy tili tarixi bo'yicha qilingan davriy tasnif [10] yordam beradi. Agar lingvomadaniyat va lingvomadaniy tushunchalar masalasiga chuqurroq e'tibor bilan murojlat qiladigan bo'lsak, avvalo bu soha ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan lingvomadaniy jarayonlar [11] tahliliga bizni jalb qiladi.

Muhokama va natijalar. Qadimgi turkiy xalqlarning turmush tarzi, qadimgi turkiy xalqlarda, ularning badiiy jihatdan bebaho asarlarida lingvomadaniy tushunchalarning ifodalanishi, bu bilan xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmush tarzini aks ettirgan tushunchalar bilan bog'liqligi, Buyuk ipak yo'li hamda umuman Markaziy Osiyoda kechgan lingvomadaniy jarayonlar [11], til vaziyatlariga murojaat qilishimizning asosi bo'ladi. Bu masala filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovning izlanish va tadqiqotlarida mukammal ma'lumotlar bilan to'ldirilganligi bilan asoslashimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, "O'rta Osiyoda yashab kelgan turkiy tub aholi o'zbek xalqining ota-bobolaridir" [10].

Madaniyatli kishilar avvalo "xalq", "yurt", "vatan" tushunchalarining mazmunini qalban his qilishi va yurakka joylashi lozimligi O'rta asrlardayoq aytilganligi hayratlanarlidir. Ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan lingvomadaniy jarayonlarda qadimgi turk (o'zbek)larda "xalq", "yurt" [10] tushunchalarining ifodalanishining o'zi o'zbek lingvomadaniyatining qadimiyligidan dalolat beradi. "Qadimgi turkiy tilda ijtimoiy uyushmani **bodun** atashgan, bu so'z hozirgi tushunchamizda "xalq, ulus" degani. Keyinchalik bu so'z tovush o'zgarishiga uchrab (**d>δ>y**)**boδun**, **boyun** ham deyilgan. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariy bu so'zni **bobun** shaklida berib, "**xalq, omma**" deya izohlaydi va u chigilcha ekanligini "ya'ni chigillar uni ana shunday talaffuz qilganligini" [6] ta'kidlaydi" [10]. To'nyuquq bitigida: "Men bo'lmaganimda, Qapag'an xoqon, turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi ham egalik qilolmas edi" [10], — deydi. "O'rxun-Enasoy obidalari, Kultegin kabi bitiktoshlarda ham "xalq, mamlakat, yurt, vatan" tushunchalari o'z ifodasini topganligini aytish lozim bo'ladi. Unda Kulteginning qahramonliklarini tasvirlash orqali uning vatan, ona-yurt uchun jonini ham fido qilishga tayyor turib jang olib borishi tasvirlarida ushbu tushunchalar yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi:

***"Qul-Tegin yadag'in o'playu tagdi,
O'ng Tutuq yorjun yaruqlug' alidin tutdi.
Yaruqlug'da qoronqa anjuladi.***

Ul sog' onda yo'qqusdimiz.

Mazmuni:

Kultegin piyoda dushmanga tashlandi,

Zirhli o'ng Tutuqni odamlari bilan(birga)tutib oldi.

Zirhdaligicha qo'shinni tor-mor qildik [7].

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “**xalq, yurt, vatan**” so'zlariga quyidagicha ta'rif berilgan: **“Xalq – yaratish, ijod qilish; yaratilgan jonzod va odamlar.** 1. Xalqqa xizmat – oliy himmat. Maqol.To'yingizga yig'ilibdi butun el, Xalq kelmoqda to'yga oqib go'yo sel. (H.Olimjon). 2. Tarixiy birlikning turli shakllari; qabila, elat, millat. O'zbek xalqi Navoiy, Bobur, Lutfiy kabi buyuk donishmand shoirlarning asarlarini o'qigan. 3. Muayyan joy aholisi; O'zbekiston xalqi. Shahar xalqi. Qishloq xalqi. 4. Biror joyga to'plangan odamlar; xaloyiq, olomon” [8].

“Yurt. 1. Ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy; o'lka, mamlakat, vatan. Tug'ilib o'sgan yurtim. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bol. Maqol. Bahor! O'ziga xos yoqimli viqor bilan yurt uzra odim tashlaydi. (Sh.Rashiov, Qudratli to'lqin). 2. Biror mamlakat yoki go'shada yashovchi xalq; el, aholi. “Ana xolos, qozi pochchang yurtga osh berayotgan bo'lsa, tuyasining dumi yerga tegibdi-ku. M. (Ismoil, Farg'ona tong otguncha)” [8]. **“Vatan – tug'ilib o'sgan joy, yurt.** 1. Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; yurt, diyor. *Bulbul chamanni sevar, odam-vatanni.*(Maqol). 2. **Kishi tug'ilib o'sgan mamlakat;** ona -yurt. Ona-vatan.Ulug' vatan” [8].

Biz e'tibor qaratayotgan “*xalq, yurt, vatan*” tushunchalari bugungi zamon o'zbek tilshunosligida va o'zbek milliy adabiyotshunosligida ham milliy lingvomadaniy birlik sifatida qo'llanilgan. Qur'oni Karimda “*Vatanni sevmak iymondandur*” deyilgan bo'lsa, hazrat Alisher Navoiy “*Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranju g'urbat havas aylama*”,- deydi. O'zbek xalqimizning hikmatlarida “*Elidan ayrilgan ellik yil yig'lar*” deyilsa, Abdurauf Fitrat “*Turonim, sendan ayrilmoq – mening uchun o'limim, Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdir*”, 1915-yilda yozgan she'rida “*Vatan sajdagohimdir*”, — deya o'zining vatanga bo'lgan sadoqatini badiiy va ravon tilda ifodalaydi. Shoir Muhammad Yusuf “Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor, Toshlarini yig'latgan dostonlaring bor, O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim, Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor”,- deganida ham “*Shoir nazarida, Vatanga muhabbat-Vatan uchun fido bo'lmoqqa tayyor turish, o'ziga hech narsa tilamaslik, buyuk sadoqat, ixlosdan iborat* [5] yuksak milliy madaniyat bordir. O'zbek milliy lingvomadaniyatining qadimiyligi va zamonaviyligiga qaratilgan fikrlar Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asariga murojaat qilish orqali yana ham teranlashadi. Chunki bu asarning tahlilida o'zbek lingvomadaniyati bilan bog'liq misollar juda ko'plab uchraydi. “Turmush va madaniyatning bir qator sohalarida yaylov hayoti oldingi orinlarda turgan. Ayniqsa, sport bellashuvlarida yaylov yetakchilik qilar edi.

Chavandozlik bilan bog'liq poyga, uloq, ko'pkari, qizquvdi singari bellashuvlar yaylovda o'tkazilgan. Yaylov kuch va jasorat maskaniga aylangan” [10]. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk” asarida qo'llanilgan **yaylov, o'tov, poyga, uloq, ko'pkari, qizquvdi, baxshi, isiriq, elak, o'rik, anduz, o'chaqlig', namat, qashuq, uzangi, egar** so'zlari o'zining qadimiyligini saqlagan holda o'zbek milliy lingvomadaniyatining namunasi sifatida madaniyat bilan bog'liq mazmunlarni to'liq ifodalaydi. “O'zbek **o'tov**lari badiiy bezaklari bilan farq qilgan. Ularda xalqning milliy san'ati, madaniyati aks etib turgan” [10]. “Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'ati-t-turk” asarida turkiy so'zlar ma'nosini ochib berish uchun keltigan xalq maqollarining

katta qismi yaylov turmush tarzi, chorvachilik, yilqichilik, ovchilik, hayvonot dunyosi bilan bog'liq" [10]. Yuqorida e'tiborga olingan madaniyat belgilari ifodalangan so'zlar bugungi zamonaviy davrimizda ham o'zbek xalqimizning milliy madaniyatini boy o'zbek tilimiz orqali ifodalaganining guvohi bo'lamiz. Bu borada yozuvchi Tog'ay Murod asarlari fikrlarimizning dalili sifatida xizmat qiladi.

Tog'ay Murod asarlarida xalqimizning milliy madaniyati qalamga olingan. **"Yaylov"**, **"chavandoz"**, **"ko'pkari"**, **"uloq"**, **"isiriq"**, **"o'choq"** so'zlari o'zbek xalqining milliy madaniyatini ifodalagan. "Chavandozlar to'daga ot soldi. Otlarini qimtdi, otlarini tizzalari bilan niqtadi, otlarini qamchiladi, otlarini *uloqqa* haydadi. *Uloq* sonsiz ot tuyoqlari orasida qoldi. Qo'llar *uloqqa* talpindi, ammo ololmadi" [12], "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida: – "Odamlar, Oqjarda ko'pkari bo'ladi! — dedi Nabi oqsoqol. – Ana, uloqni olib ketdi! Xohlaganlar borsin! Eslaringda bo'lsin, kechasi olish bo'ladi, ertaga yana ko'pkari!" [4] gaplarida O'zbek milliy madaniyati milliy ruhda tasvirlangan. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida "utug" — dazmol(DLT,41-b); andavaga o'zshash temir (uskuna) bo'lib, uni qizdiradilar va kiyimning chok hamda baxyalarini va tuklarini bostirib, silliqlaydilar" [4]. **"Anduz"** (angduz, DLT,59-b) rosan; yerdan qazib olinadigan o'simlik ildizi. Otlarning qorin og'rig'i kasaliga davo bo'ladi. **"Anduz bolsa at o'lmas.** Ma'nosi: Rosan o'ti yoningda bo'lsa, ot yo'lda qorin og'rig'idan o'lmaydi, ot og'rib qolganda u bilan davolash mumkin" [4], — degan ma'lumotlar keltirilgan. Zamonaviy talqinda ham **"anduz"** o'simligi shoir Azim Suyun she'rida o'z ifodasini topgan: "Andiz o'sgan yerlarda otlar bevaqt o'lmag'ay, Yaxshi bo'lsa ayollar, erlar yuzi so'lmag'ay". Yoki **"isiriq" (hazorispand)** so'zi ham "Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida keltirilib, bozorlarda, odamlar to'planadigan joylarda tutatilishi, shamollash kasalligi, tumov kasalligiga davo ekanligi, ming dardni qaytarishi aytiladi. "Devonu lug'ati-t-turk" asarida aytib o'tilgan **isiriq** diniy marosimlar, rasm-rusumlarda haligacha ishlatilib kelinadi. Masalan, "yuvg'uchilar marhumni suvga olishgach, uni taxtaga yotqizib yuzini qiblagga burib qo'yishadi. Xonaga **isiriq** tutatiladi. Bu zardushtiylikda yovuz ruhlarni haydovchi vosita sifatida qo'llanilgan" [13]. Chaqaloq tug'ilganda beshikka solish marosimida, yangi uyga ko'chib kirilganda, kelin tushib kelganda va shunga o'xshash ko'pgina marosimlarda isiriq tutatiladi. Uylarga yomonliklarni daf qilish maqsadida isiriq shodalarini osib qo'yadilar.

Ushbu keltirilgan misollar o'zbek milliy lingvomadaniyatining qadimiyligi va zamonaviyligidan dalolat beradi hamda ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida juda ko'plab shunga o'xshash so'zlar, maqollar va matallar keltirilganki, bu so'zlar o'zbek milliy lingvomadaniyatining tarixiyligi va zamonaviyligidan dalolat beradi:

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida qo'llanilgan lingvomadaniy so'zlar, maqollar va matallar tahlili

t/r	Devonu lug'ati-t-turk asaridagi ko'rinishi	Zamonaviy HO'ATdagi Ifodasi	Ma'no ifodasi
1.	isiriq	isiriq, hazorispan	Ming dardni qaytaruvchi, shamollash kasalligida qo'llaniladigan viruslarni yo'qotish xususiyatiga ega bo'lgan o'simlik.
2.	o'chaqlig'	o'choqli uy	O'choq, olov yoqib, ovqat qilinadigan joy.
3.	elak	elak	Elak – un, bug'doy, qum elash asbobi.
4.	namat	kigiz	Qo'ylarning yungidan tayyorlangan to'shaydigan jihoz.
5.	eruk	o'rik	O'rik, shaftoli va olxo'ri mevalarining umumiy nomi.
9.	Ersäk erkä tegmäs, ewäk ewkä tegmas	Er uchun shoshilgan xotin erga yolchimaydi, shoshma- shoshar kishi uyiga yetolmaydi	Shoshgan qiz erga yolchimas
10.	Erdäm baši til	Odobning boshi til	Odobning boshi kalom
11.	Beš erijäk tüz ermäs	Besh qo'l (barmoq) barobar emas.	Besh qo'l barobar emas
12.	ezgu	yaxshi, chiroyli ish	Yaxshi ish, yaxshi odat.
13.	qashuq quruq qašuq ağizqa yaramas, quruğ söz qulaqqa yaqïsmas [9]	qoshiq Quruq qoshiq og'izga yoqmas, quruq gap quloqqa	Quruq qoshiq og'iz yirtadi.
14.	bashik	bashik	chaqaloqlar uyi
15.	uzangi	uzangi	otning abzali
16.	egar	egar	otning abzali

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy lingvomadaniyati tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida qadimiylik va zamonaviylik omillarining uzviy uyg'unligidan shakllanib kelmoqda. Qadimiylik unsurlari xalq og'zaki ijodi, mifologik tasavvurlar, diniy va falsafiy meros hamda yozma manbalarda o'z ifodasini topgan bo'lsa, zamonaviylik unsurlari globallashuv, axborot texnologiyalari, ijtimoiy-madaniy islohotlar va yangi kommunikativ jarayonlar orqali o'z aksini topmoqda. Til va madaniyatning uyg'unligi milliy o'zlikni mustahkamlash, o'zbek xalqining dunyoqarashi va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, milliy lingvomadaniyatni chuqur ilmiy tadqiq qilish, uni ta'lim, madaniyat, ijtimoiy hayot va xalqaro aloqalar tizimiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. O'zbek lingvomadaniyatining qadimiylik va

zamonaviylik asoslarini uyg'un holda o'rganish milliy o'zlikni saqlash bilan birga uni global madaniy muloqotga munosib tarzda olib chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so'zi, 2019-yil, 22-oktabr.
2. Iqbol Mirzo. "Devonu lug'otit-turk" asarining xalqoro miqyosda o'rganilishi. "Sharq yulduzi" jurnali, 2018-yil, 8-son.
3. Karimov I. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. – Samarqand. 2014.
4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
5. Muhammad Ali. Shoirning so'zi tinmaydi. – Toshkent: "ADIB", 2014.
6. Mutallibov S. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. ("Devonu lug'otit-turk") I-III. – Toshkent. 1960-1963.
7. O'zbek adabiyoti tarixi, I tom. – Toshkent: "Fan", 1977.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbek milliy ensiklopediyasi". – Toshkent: Davlat ilmiy nashri.
9. Ro'ziyev E. "Devon"da yashayotgan hikmatlar. – Toshkent: "Tafakkur nashriyoti, 2019.
10. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. – Toshkent: "Akademnashr", 2021.
11. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning shakllanishi va qadimgi tilning manbalari. – Toshkent: "Akademnashr", 2021.
12. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2008.
13. Tursunov S.N, Pardayev T. Surxondaryo etnografiyasi. O'quv qo'llanma. www.arxeologiya.uz.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).